

EIZLAR FAOLIYATINING EKSPORT SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Saidaxmedova Dilafruz Saidbaxromovna – Jizpi dotsenti, p.f.n.

Kuzmina Svetlana Nikolaevna

**Sankt-Peterburg davlat elektrotexnika universiteti, Iqtisodiyot fanlari
doktori, professor**

Annotatsiya. Ushbu maqolada erkin iqtisodiy zonalarining eksport salohiyatiga ta'sir qiluvchi omillarni tizimlashtirish asosida eksport salohiyatini rivojlantirishning konseptual sxemasi taklif etilgan.

Kalit so'zlar. Erkin iqtisodiy zona, eksport salohiyati, raqobatbardoshlik, omil, tizim, boshqaruv.

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЭКСПОРТНОГО ПОТЕНЦИАЛА ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОЭЗ

Саидахмедова Дилафруз Саидбахромовна – доцент Джизпи,

**Кузьмина Светлана Николаевна Санкт-Петербургский государственный
электротехнический университет, доктор экономических наук, профессор**

Аннотация. В данной статье предлагается концептуальная схема развития экспортного потенциала, основанная на систематизации факторов, влияющих на экспортный потенциал свободных экономических зон.

Ключевые слова. Свободная экономическая зона, экспортный потенциал, конкурентоспособность, фактор, система, управление.

CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF THE DEVELOPMENT OF EXPORT POTENTIAL OF EEZ ACTIVITIES

Saidakhmedova Dilafruz Saidbakhromovna-associate professor of Jizpi,

**Kuzmina Svetlana Nikolaevna St. Petersburg State Electrical Engineering
University, doctor of Economic Sciences, professor**

Annotation. This article proposes a conceptual scheme for the development of export potential, based on the systematization of factors influencing the export potential of free economic zones.

Key words. Free economic zone, export potential, competitiveness, factor, system, management.

Bugungi kunda eksport salohiyati tushunchasi xalqaro savdoda mamlakat raqobatbardoshligini ifodalovchi va ta'minlovchi eng muhim omil sifatida tavsiflanadi. Mamlakatlar o'zlarida mavjud bo'lmagan yoki taqchil resurslarni o'zlashtirish va ehtiyojlarni qondirish muammosini hal etishda, ko'pincha eksport salohiyatiga tayanadilar.

Mamlakatimizda olib orilayotgan iqtisodiy islohotlarda ochiqlik tamoyilining amaldagi natijasi korxonalarining eksport faoliyatini kengaytirishda qaratilayotgan chora tadbirlarda o'z aksini topmoqda. Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalarda ham hududlarning eksport salohiyatini oshirish alohida qayd etilib, "...Eksport salohiyatini oshirish orqali 2026 yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSH dollariga yetkazish bo'yicha amalga oshiriladigan vazifalarda eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 baravar ko'paytirish, eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar ulushini 32 foizdan 42 foizga yoki 5,9 mlrd AQSH dollariga yetkazish"¹ masalasini kun tartibiga qo'ymoqda.

Bugungi kunning ilmiy sohasida keng qo'llanilayotgan "eksport salohiyati" tushunchasini milliy iqtisodiyotimiz uchun bir qator afzalliklarga ega iqtisodiy kategoriya sifatida chuqurroq o'rganish davr talabiga aylanmoqda. Eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy rivojlanish modelini tanlagan mamlakatlar, xususan Sharqiy Osiyo mamlakatlari yalpi ichki mahsulotida eksport ulushi 60% ga yaqin

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.02.2023 yildagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-27-son Farmoni

ko'rsatkichni ifoda etadi². Bunday holat eksport salohiyati tushunchasini ilmiy nazariy asoslarini chuqur o'rganish va uning mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishidagi o'rnini tahlil qilish zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi.

Mamlakatimiz yosh olimlaridan R.Raxmonov eksport salohiyati tushunchasini quyidagicha izohlaydi: «eksport salohiyati – bu milliy iqtisodiyot, mintaqalar, alohida olingan tarmoqlar yoki korxonalarining eksportga kerakli darajada raqobatbardosh mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarish va yetarli hajmda yetkazib berish qobiliyatidir³»

Korxonalarining eksport salohiyatini oshirishda qanday omillar muhim rol o'ynaydi? Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda eksport salohiyatiga ta'sir etuvchi omillarni tasniflashga turlicha yondashuvlar mavjud. Unga ko'ra, omillar bir necha guruhlarga ajratiladi: korxonaning xususiyatlari (hajmi, xalqaro kompetentsiyasi, xalqaro ish tajribasi va boshqalar), tarmoq va bozor, psixologik xususiyatlar, maqsadli segmentni tanlash va shu kabilar.

EIZlar tarkibida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining eksport salohiyatini oshirish masalasi o'ziga xos xususiyatga ega. Ma'lumki, EIZlar bu mahalliy hamda xorijiy tadbirkorlar samarali faoliyat yuritishi uchun maxsus imtiyozlar amal qiladigan chegaralangan hududlardir. Zamonaviy tajribalar shuni ko'rsatadiki, EIZlar faoliyatining samaradorligiga quyidagi omillar bevosita ta'sir ko'rsatadi:

- EIZning xududiy joylashuvi;
- xududiy infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi;
- mamlakatning fiskal, moliyaviy va ma'muriy rag'batlantirish tizimi;
- shaffof va soddalashtirilgan ma'muriy rasmiyatchiliklar («bir darcha» tamoyili, kompaniyani ro'yxatdan o'tkazish va chet el ishchi kuchini jalb qilish tartibini soddalashtirish) kabilar.

Shu nuqtai nazardan, “erkin iqtisodiy zonalarining eksport salohiyati» deganda, mamlakatning imtiyozli rejimga ega bo'lgan hududini samarali


² Hamedov I.A., Alimov A.M. O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari. T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi “Adabiyot jamg'armasi” nashr., 2001. - 328b.

³ Rahmonov R.N. “Farg'ona mintaqasi eksport salohiyatidan oqilona foydalanish va uni takomillashtirish yo'llari” mavzusidagi avtoreferati. Toshkent: TMI, 2012 yil. - 23 bet.

boshqarish orqali raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va tashqi bozorga olib chiqish qobiliyatini tushunish o'rinli.

EIZlarning eksport faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarini tizimlashtirish asosida eksport salohiyatini rivojlantirishning konseptual sxemasi taklif etiladi (1-rasm).

Sxemadan ko'rinib turibdiki, EIZlarning eksport salohiyatini oshirishda biri-biri bilan o'zaro bog'langan bir qancha omillarning xususiyatlarini hamda bir-biriga bog'liqlik darajasini aniqlagan holda, unga ta'sir qiluvchi eng muhimlarini ajratib olish mumkin. Mamlakatda ma'muriy boshqaruv rag'batlantirish tizimini takomillashtirish boshqaruv va kadrlar salohiyatini oshirish imkoniyatini beradi. Bu o'z navbatida EIZlarda innovatsion va marketing salohiyatini oshirishga va oxir oqibat eksport salohiyati hamda ishlab chiqarish salohiyatining oshirishiga olib keladi. Bu holat EIZning xududiy joylashivining xususiyatidan kelib chiqqan holda, uning infratuzilmasining rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Shuningdek, EIZlar uchun xos bo'lgan mamlakatning moliyaviy, fiskal rag'batlantirish tizimidan umumli foydalanish EIZlarning investitsion va moliyaviy salohiyatini oshirishga hamda hududning bandlik salohiyatini oshirishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonlarning samaradorligi ko'p jihatdan boshqaruvning to'g'ri tashkil etilganligiga bo'g'liq.



1-rasm. Erkin iqtisodiy zonalarning eksport salohiyatini rivojlantirishning konseptual sxemasi

Xulosa o'rnida aytish joizki, erkin iqtisodiy zonalar direksiyasiga hududlarda savdo, investitsiyalar, innovatsiyalar va infratuzilmani rivojlantirishda mustaqil qarorlarni qabul qilish, shuningdek, soliq va bojxona imtiyozlarini berish hamda hududlararo tizimli joylashtirish kabi masalalarda vakolatini kengayirishga e'tibor qaratish O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saidahmedova, D. Management Analysis and Innovation Management Model. *Published in International Journal of Trend in Scientific Research and Development (ijtsrd)*, ISSN, 2456-6470.

2. Саидахмедова, Дилафруз, and Шахноза Гойибназарова. "O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarning eksport salohiyatini oshirishning dolzarb vazifalari." *Новый Узбекистан: наука, образование и инновации* 1.1 (2024): 245-247.

3. Dilafruz, S., & Shaxnoza, G. O. (2023). O'zbekistonda raqamli tadbirkorlikni rivojlantirish–dolzarb muammo sifatida. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 153-157.

4. Saidaxmedova D.S. "Menejmentga kirish" (praktikum). Darslik. "JizPI tipografiyasi" nashriyoti, 2023 yil. - 300 b.

5. Saidahmedova, D. (2024). O'zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari. *Journal of Contemporary World Studies*, 2(1), 50-54.

6. Saidaxmedova, D. S. (2024). Erkin iqtisodiy zonalar–hududlarni rivojlantirishning muhim omili sifatida. *Экономика и социум*, (2 (117)-1), 617-620.